

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH**  
**(Tilshunoslikka kirish)**



**TOSHKENT**

81  
M-902

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI  
UNIVERSITETI**

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH  
(Tilshunoslikka kirish)**

**TOSHKENT – 2018**

UO‘K 81‘1(075)  
KBK 81ya73  
M 92

**I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, Z.Xolmanova, R.Majidova, Sh.Sultonova\ Darslik\ Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish) – T.: «Barkamol fayz media», 2018. – 328 b.**

**ISBN 978-9943-5518-0-0**

“Mutaxassislikka kirish” fanidan yozilgan ushbu darslikda til nazariyasiga oid materiallar berilgan. Unda “Mutaxassislikka kirish” fani, uning mundarijasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati”, “Tillarning shakllanishi va rivojlanishi”, “Til – eng muhim muloqot vositasi”, “Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqligi”, “Til tizimi va uning taraqqiyot qonuniyatlari”. “Til va tafakkur munosabati”, Til va madaniyat munosabati”, “Yozuv kishilik madaniy taraqqiyoti mahsuli sifatida”, “Til – belgilar tizimi”, “Tilshunoslik va uning bo‘limlari. Fonetika va fonologiya”, “Tilning lug‘at sathi. Leksikologiya va leksikografiya”, “Grammatika va uning bo‘limlari. Morfologiya va sintaksis”, “Dunyo tillarining genealogik tasnifi. Til oilalari”, “Morfologik tasnif. Agglyutinativ va flektiv tillar”, “Lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang‘ich ma‘lumotlar”, “Tilshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi” kabi mavzular tilshunoslikdagi so‘nggi yutuqlar va nazariy fikrlar asosda yoritib berilgan.

Darslik oliy ta‘lim muassasalari filologiya fakulteti bakalavr yo‘nalishi talabalari, shuningdek tilshunoslik ilmi bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K 81‘1(075)  
KBK 81ya73

*Mas‘ul muharrir:*

**R.Rasulov** – filologiya fanlari doktori, professor

*Taqrizchilar:*

**B. Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor;

**A.Ubaydullayev** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**ISBN 978-9943-5518-0-0**

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 14-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda Respublika Hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisida qilgan ma‘ruzasida: “Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar: mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari hali sifatli va ta’liq holda yechilgani yo‘q. Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur” – deb ta’kidladilar.

Mazkur darslikni ushbu yo‘ldagi izlanishlardan biri sifatida baholash mumkin. Ushbu darslik OTMning O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari uchun “Mutaxassislikka kirish” fani dasturi asosini yaratildi.

Darslikni yozishda mualliflar M.Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish”, A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”, N.Mahmudovning “Til”, “Til va yozuv”, “Ma’rifat manzillari”, T.Hushuy, Sh.Safarovlarning “Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi”, H.Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, M.Mirtojiyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” va “O‘zbek tili semasiologiyasi”, R.Rasulovning “Umumiy tilshunoslik (OTM uchun darslik)” nomli kitoblaridan unumli foydalanishdi. Shu bois mualliflar ularga o‘z minnatdorchiliklarini bildirishadi.

## 1-§. “MUTAXASSISLIKKA KIRISH” FANINING O‘RGANISH OBYEKTI, MAQSAD VA VAZIFASI. TIL MURAKKAB MOHIYAT SIFATIDA

“Mutaxassislikka kirish” fani tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo‘lishi, til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til tavsifi va tillar tasnifidagi muhim jihatlarni o‘rganadi.

“Mutaxassislikka kirish” fanining asosiy maqsadi tilshunoslik fani, uning bo‘limlari, o‘rganish obyekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot berish, talabalarni tilshunoslik fanining asosiy tushunchalari, kategoriyalari haqidagi bilimlar bilan tanishtirish, talabalarda olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish kabilardan iborat.

Ushbu fanning vazifalari til va jamiyat, til tizimi va tuzilishi, uning sathlari, birliklari va ularning namoyon bo‘lish qonuniyatlari, tilshunoslik fanining boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi, dunyo tillarining tasnifi kabi nazariy bilimlar berishdan iboratdir.

“Mutaxassislikka kirish” fani talabalarga dastlabki umum-lingvistik bilimlarni beradi, ularni tilning jamiyat hayotidagi ahamiyati, tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqasi, tilshunoslikning nazariy masalalari, tillarning tipolik va genealogik tasnifi kabilar bilan tanishtiradi. Mazkur fan talabalarda muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etish, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, o‘z nuqtayi nazarini ilmiy asoslab berish va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana olish kabi malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik fanining predmeti, o‘rganish manbayi, o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan murakkab tizim – tildir. Tilshunoslik til haqidagi mustaqil va aniq fan bo‘lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. “Mutaxassislikka kirish” fani til haqidagi fanlarning asosiy masalalarini o‘rganadi, shu bois, bunday bilimlarga ega bo‘lmasdan uning ayrim bo‘limlarini to‘liq tasavvur qilish mumkin emas.

Tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Til va jamiyat taraqqiyoti bog'liqligi tufayli tilni morfologlar ham tadqiq etadilar. Tilshunoslar ham tarix, etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika kabi fanlarga oid materiallar va xulosalardan foydalanadilar.

Dunyoda tilshunoslik borasidagi ilk qadamlar insonlar o'rtasidagi muvofiq bo'lgan zaruriyat sezilgan davrlardan e'tiboran qo'yilgan, shu xato bo'lmaydi. Tilshunoslik fani eng uzoq tarixga ega bo'lgan fanlar sirasiga kiradi. U eramizdan bir necha yuz yillar avval qadimgi Hindiston va qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da taraqqiy etgan boshlagan. Qadimgi Yunoniston olim va faylasuflari o'rtasida so'z va tushuncha munosabati masalalari bir qator bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq olib borilgan tahlillar, kuzatishlar provardida tilning so'z boyligi, so'zlarning paydo bo'lishi haqidagi dastlabki nazariy fikrlarga asos solindi.

XIX asrning birinchi yarmida tilshunoslik sohasida juda katta yutuqlarga erishildi. Xususan, bu davrda tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod shakllandi va unga hamohang tarzda til haqidagi fan ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fani deb yuritila boshlandi. Bu davrda Yevropa tillarining sanskrit (qadimgi hind) tili bilan uzviy bog'lanishini sezgan holda bu tillarning o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik turlari jiddiy o'rganila boshladi. Ayniqsa, tillarni qiyosiy-tarixiy aspektida tadqiq etish borasida nemis olimlari Frans Bopp (1791–1867), Yakob Grimm (1785–1863), daniyalik olim Rasmus Rask (1787–1832), rus olimi Aleksandr Vostokov (1781–1864), chek olimi Dobrovskiy (1753–1829) kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. Qiziqarli tarafi shuki, mazkur olimlar bir-birlariga bog'liq bo'lmagan holda va bir davrning o'zida tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganish metodi, g'oyasi va tamoyillarini ishlab chiqish borasida hamfikr bo'ldilar.

1818-yilda F.Bopp tomonidan “Sanskrit tilining yunon, lotin, frans va german tillariga qiyosan tuslanish sistemasi haqida” nomli asari chop etildi. Unda F.Bopp mazkur tillarning morfologik tuzilishini ko'rsatib bergan. Qolaversa, u hind-yevropa tillarining ko'p

jihandan mushtaraklikka ega bo'lganligini, xususan, grammatik qurilishi bir xilda ekanligini, bu tillarning bir o'zak tildan kelib chiqqanligini asoslab bergan. Xuddi shu yili R.Raskning "Qadimgi shimoliy til yoki island tilining kelib chiqishiga oid tadqiqotlar" nomli ilmiy ishi e'lon qilindi. R.Rask ham o'z asarida tillarning yaqinligini va o'xshashligini aniqlashda ularning grammatik qurilishi, tovushlarning bir-biriga mos kelishi kabi holatlar asos bo'lishini ta'kidlaydi. 1819-yilda Y.Grimmning "Nemis grammatikasi" nomli asari birinchi jildi dunyo yuzini ko'rdi. 1920-yilda A.Vostokov qalamiga mansub "Slavyan tili haqida mulohazalar" nomli ilmiy asar chop etildi. E'lon qilingan bu ishlarda insoniyat tillarini yangi usul – tarixiy nuqtayi nazardan o'rganish metodi boshlab berildi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. F.de Sossyurning fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan **vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiati jihatidan til – madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisa**, ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi – ishoralar tizimidir.

Umuman, tilshunoslik fani taraqqiyotiga IV asrda yashagan hind olimi Panini, grek tilshunoslari Demokrit, Epikur, Geraklit, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Alisher Navoiy, yevropalik olimlar Vilgelm fon Gumboldt, Ferdinand de Sossyur, Grosse, Boduen de Kurtene, N.V.Krushevskiy kabi olimlar muhim hissa qo'shganlar.

### **Tilning mohiyati. Tilning mohiyati haqidagi qarashlar**

Tilshunoslik tarixida tilning mohiyati haqida ikki qarama-qarshi fikr o'rtasida kurash borgan. Bular:

1. Avgust Shleyxer (XIX asr) asos solgan "tilning tabiiyligi" haqidagi fikr. Bu g'oyaga binoan til paydo bo'ladi, rivojlanadi, kezi kelganda yo'q bo'ladi, o'ladi. Bu fikrni olimlar quyidagicha dalillaydilar: lotin, sanskrit tillari o'lik tillar hisoblanadi, bu tillar o'ziga xos shakllanish, rivojlanish va tanazzul davrlarini boshdan kechirgan.

2. Materialistik “tilshunoslik til tabiiy hodisadir”, degan g‘oyani rad etadi. Tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti kishilik jamiyati bilan uzviy bog‘langan. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi gapirmaydi. Irsiyat qonuniga tilning aloqasi yo‘q. Masalan, o‘zbek oilasida rus millatiga mansub bola tarbiyalansa, o‘zbek tilida gapiradi. Demak, til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyotidagi mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til jamiyat bilan paydo bo‘lganidek, jamiyat bilan birga taraqqiy etadi.

Til – insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. Aloqa boshqa vositalar bilan ham o‘rnatilishi mumkin: Morze alifbosi, imo-bona va boshqalar. Masalan, Afrikada uzoq masofaga axborot yetkazish uchun qo‘llanadigan nog‘ora tovushlari, Kanar orollarida ishlatiladigan “hushtak tili” shular jumlasidandir. Boshqa aloqa vositalari tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajalidir. Til va boshqa aloqa vositalarini birlashtiruvchi xususiyatlar quyidagilar:

– fikr va hissiyotni ifodalashi;

– ijtimoiyligi, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qiladi;

– moddiylik (tovush to‘lqinlari, grafik chizmalar...);

– obyektiv borliqni aks ettirishi.

Ular orasidagi farqlar quyidagilar:

– til – fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo‘llaydi. Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko‘lami cheklangan, masalan, ko‘cha harakati belgilari faqat haydovchilarga xizmat qiladi;

– til quruq axborotning o‘ziningina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish-istagi va bahosi, ruhiy holatini aks ettiradi.

– tildan boshqa hamma signal sistemalari sun‘iydir, ular inson tomonidan yaratiladi va sharoitga ko‘ra o‘zgartirilishi mumkin. Sun‘iy vositalarni yaratishda hamma odamlar emas, mazkur sohani yaxshi biluvchi kichik bir guruh ishtirok etadi. Til odamlarning istak-sohishiga bog‘liq bo‘lmaydi, uni jamiyat a‘zolari o‘zgartirmaydi. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi. Til va jamiyat doimo



bir-birini taqozo etadi. Boshqa signal sistemalari tilga nisbatan ikkilamchi, unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, tilni to'ldiradi.

Til o'ziga xos semiologik sistema (ishoralar sistemasi) bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan-avlodga madaniy-tarixiy an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi.

Til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalash sira mumkin bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr va so'z munosabati juda murakkab bo'lib, fikr so'zlarda o'z ifodasini topmaguncha, ya'ni so'zlardan tarkib topgan ifoda qolipiga tushmaguncha yuzaga chiqmaydi. Fikrning mohiyatini tashkil etadigan har qanday idrok ham faqat so'zlar vositasi bilangina namoyon bo'ladi. Til va tafakkur faqat kishilargagina xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi bilan bog'liqdir. Til va tafakkur bir narsa emas. Tafakkur tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni fikrning ma'lum bir shakliga solib, so'zlar, so'z birikmalari va jumlarlar orqali ifodalaydi.

Til grammatikaning o'rganish manbayi, tafakkur mantiqning o'rganish manbayidir. Til barcha uchun birday xizmat qiladi. Bir tilda gaplashuvchi jamiyat a'zolarining fikrlashlari bir xil bo'lmaydi.

Xullas, tilshunoslik til haqidagi mustaqil fan bo'lib, uning obyektini til hisoblanadi, u tilshunoslikdan tashqari yana bir necha fanlar tomonidan o'rganilishni talab qiladigan murakkab sohadir. Tilning mohiyatini o'rganish va tilshunoslik fanining predmetini aniqlash o'z navbatida tilni o'rganadigan boshqa fanlarning yutuqlarini nazarda tutishni va tilshunoslikning asosiy masalalarini hal qilishda ularni inobatga olishni taqozo etadi. Tilshunoslik boshqa fanlar bilan qanchalik aloqada bo'lmasin, uning o'z tadqiqot objekti va tadqiqot chegarasi mavjud va mustaqil fan sifatida fanlar sistemasida qat'iy o'rniga ega.

"Mutaxassislikka kirish" fanida til mohiyati, til tizimi, tilning ijtimoiy tabiati, til va jamiyat, til va nutq, til va tafakkur munosabatlari, tillar tasnifi masalalarini tahlil qilish davomida uning amaliy ahami-

yati, tillar xilma-xilligi, tilni o'zlashtirishda nazariy masalalarni bilishning o'rni borasida ham fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Zero: "Hech bir tilni uning butun lug'at boyligini yoki gap qurilishini yod olish bilan o'rganib bo'lmaydi. Hattoki, biror kishi nazariy jihatdan shakllantirilgan hamma so'zlarni o'rgansa ham bu yetarli bo'lmaydi. Ular, o'rganuvchilar nutq faoliyatining muqobil variantlari bilan tanishmasdan turib muloqotga kirisha olmaydi. Biz biror tilni o'rganish imkoniyatini yaratadigan boshqa usullarni ko'rib chiqqandimiz lozim. Bu miya faoliyatining muayyan tilni o'rganish mexanizmi bilan bog'liq. Yana bir muhim ma'lumot sifatida shuni qayd etish zarurki, bolalar tilni tez va oson o'rganishadi. Bola nutqi rivoji yoki til o'rganish qobiliyati uni o'rab turgan muhit ta'siriga bog'liq.

Til o'rganishning yana bir muhim usullaridan biri kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Fan-texnika rivoji natijasida til o'rgatish uchun maxsus kompyuter dasturlari yaratildi. Ularda fe'llar, zamonlar, modal fe'llar tavsifi va zaruriy gap qoliplari keltirilgan<sup>1</sup>.

"Mutaxassislikka kirish" fani umumiy tilshunoslikning muammolarini tushunishga tayyorlaydi va shu bilan birga til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni beradi.

### ***Mustahkamlash uchun savollar:***

1. "Tilshunoslikka kirish" fanining maqsadi nimalardan iborat?
2. "Tilshunoslikka kirish" fanining vazifalariga nimalar kiradi?
3. Tilshunoslik fanining eng qadimiy ta'limotlari va maktablari qayerda yuzaga kelgan?
4. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik qachon vujudga kelgan?
5. Tilshunoslik qachon alohida fan sifatida ajralib chiqdi?

---

<sup>1</sup> Borbala Richter. *First steps in theoretical and applied linguistics*— Budapest, 2006.— P.19

6. Tilshunoslik fanining taraqqiyotiga qaysi olimlar katta hissa qo'shganlar?

7. Tilning mohiyati haqida qanday fikrlar mavjud?

8. Til va boshqa ishoralar sistemasining farqlari nimalardan iborat?

9. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning aloqasi qanday?

10. Tilshunoslik va tabiiy fanlarning aloqasi haqida nimalarni bilasiz?

### *Asosiy tushunchalar izohi:*

1. "Tilshunoslikka kirish" fani umumiy tilshunoslikning muammolarini tushunishga tayyorlaydi va shu bilan birga til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni beradi.

2. Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816) mustaqil fanlar qatoriga qo'shildi.

3. XIX asrning birinchi choragida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik vujudga keldi.

4. Tilning mohiyati uning ijtimoiy hodisa ekanligida ko'rinadi.

5. Tilshunoslik ijtimoiy fanlardan – adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, mantiq, psixologiya, sotsiologiya; tabiiy fanlardan – matematika, kimyo, fizika kabilar bilan uzviy bog'liq fandır.

## MUNDARIJA

So'zshosi.....	3
1-§. "Mutaxassislikka kirish" fanining o'rganish obyekti, umumiy va vazifasi. Til – murakkab mohiyat sifatida.....	4
2-§. Tillarning shakllanishi va rivojlanishi.....	11
3-§. Til – eng muhim muloqot vositasi.....	33
4-§. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi.....	38
5-§. Til tizimi va taraqqiyot qonuniyatlari.....	46
6-§. Til va tafakkur munosabati.....	60
7-§. Til va madaniyat munosabati.....	66
8-§. Yozuv – kishilik madaniy taraqqiyoti mahsuli sifatida.....	81
9-§. Til – belgilar tizimi.....	108
10-§. Tilshunoslik va uning bo'limlari. Fonetika va fonologiya.....	128
11-§. Tilning lug'at sathi. Leksikologiya va leksikografiya.....	152
12-§. Grammatika va uning bo'limlari. Morfologiya va sintaksis.....	227
13-§. Dunyo tillarining genealogik tasnifi. Til oilalari.....	246
14-§. Morfologik tasnif. Agglyutinativ va flektiv tillar.....	281
15-§. Lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang'ich ma'lumotlar.....	296
16-§. Tilshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi.....	300
"Mutaxassislikka kirish" fanidan test savollari.....	305
Ilmiy-metodologik manbalar.....	324
Foydalanilgan adabiyotlar.....	324

**I.YO‘LDOSHEV, S.MUHAMEDOVA, Z.XOLMANOVA,  
R.MAJIDOVA, SH.SULTONOVA**

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH  
(Tilshunoslikka kirish)**

**(Darslik)**

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2018

*Muharrir: M. Turdiyeva*

*Musahhiha: M. Turdiyeva*

*Kompyuterda*

*sahifalovchi M.Mamarasulova*

**E-mail: [Barkamolfayz@mail.ru](mailto:Barkamolfayz@mail.ru)**

**Nashr.lits. AIN<sup>o</sup> 284, 12.02.16. Bosishga ruxsat etildi 29.11.2018.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma usulida**

**bosildi. Shartli bosma tabog‘i 20.5 Nashriyot bosma tabog‘i 20.5**

**Tiraji 300. Buyurtma № 20**

**«ZEBO YULDUZLARI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.**

**Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani,**

**Aviasozlar-4 34-uy 56-xonadon.**